

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
269 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan inverter, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



XITOIY VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA SOLIQ TO'LOVCHILAR REYTINGI TIZIMI ORQALI FISKAL INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH



Abdullayev Zafarbek Safibullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (DSc)
ORCID: 0009-0000-2685-5398

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasida soliq to'lovchilar reytingi tizimi joriy etilishi, uning baholash mezonlari, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligi va ijtimoiy kredit modeli bilan integratsiyalashuvi chuqur tahlil qilinadi. Tizimning asosiy vazifasi sifatida halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, noto'g'ri xulq-atvorni jazolash va umumiy fiskal intizomni oshirishdan iborat. Maqolada Xitoyning "A–D" reyting toifalari asosida korxonalarni baholash mexanizmi, "Bank–Soliq hamkorligi" orqali tadbirkorlarni kreditlashdagi innovatsiyalar, shuningdek, raqamli monitoring va e-fakturalar orqali soliq intizomini kuchaytirish tajribalari yoritilgan. O'zbekiston tajribasi Xitoy modeli bilan taqqoslanib, mahalliy sharoitda reyting tizimini isloh qilish imkoniyatlari va real natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi hujjatlar tahlili, statistik ma'lumotlar va qiyosiy yondashuv asosida shakllantirildi.

Kalit so'zlar: Xitoy soliq tizimi, soliq to'lovchilar reytingi, ijtimoiy kredit tizimi, raqamli fiskal boshqaruv, "Bank–Soliq hamkorligi", soliq intizomi, e-faktura (e-fapiao), barqarorlik reytingi, O'zbekiston soliq siyosati, shaffoflik, avtomatlashtirilgan baholash tizimi, kredit baholash, halol biznes, davlat-xususiy hamkorlik, tadbirkorlikni rag'batlantirish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the taxpayer rating system implemented in the People's Republic of China, including its evaluation criteria, integration with digital technologies, and alignment with the national social credit model. The system aims to encourage compliant taxpayers, penalize misconduct, and enhance overall fiscal discipline. The article discusses the rating mechanism based on categories "A–D", innovative credit facilitation under the "Bank–Tax Cooperation" initiative, and the impact of digital monitoring and e-invoicing on tax compliance. China's approach is compared to Uzbekistan's recent experience in implementing a similar stability rating system, with a focus on local adaptation and preliminary outcomes. The research methodology includes document analysis, statistical data, and a comparative approach.

Keywords: China's tax system, taxpayer rating, social credit system, digital fiscal management, "Bank–Tax cooperation", tax compliance, e-invoice (e-fapiao), stability rating, Uzbekistan's tax policy, transparency, automated evaluation system, credit rating, compliant business, public-private partnership, entrepreneurship incentives.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается внедрение системы рейтинга налогоплательщиков в Китайской Народной Республике, а также критерии оценки, интеграция с цифровыми технологиями и включение в модель социального кредитования. Основной задачей системы является стимулирование добросовестных налогоплательщиков, применение санкций к недобросовестным субъектам и повышение общего уровня фискальной дисциплины. В статье анализируются механизмы присвоения рейтингов “А–D”, инновации по программе «Банк–Налоговая служба» в кредитовании предпринимателей, а также практика усиления налоговой дисциплины за счет цифрового мониторинга и электронных счетов-фактур. Опыт Китая сопоставляется с практикой Узбекистана, в том числе рассматриваются результаты внедрения аналогичной системы и возможности ее адаптации в национальных условиях. Методология исследования основана на документальном анализе, статистических данных и сравнительном подходе.

Ключевые слова: налоговая система Китая, рейтинг налогоплательщиков, система социального кредитования, цифровое фискальное управление, «Банк–Налоговая служба», налоговая дисциплина, электронный счет-фактура (e-fapiao), рейтинг устойчивости, налоговая политика Узбекистана, прозрачность, автоматизированная система оценки, кредитный рейтинг, добросовестный бизнес, государственно-частное партнерство, стимулирование предпринимательства.

KIRISH

Xitoy Xalq Respublikasida so'nggi yillarda soliq ma'muriyatini takomillashtirish va soliqlarni yig'ish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ularning eng e'tiborga molik jihatlaridan biri soliq to'lovchilar reytingi tizimini joriy etish bo'ldi[1]. Ushbu tizim orqali soliq to'lovchi korxonalar yillik soliq intizomiga qarab “A”, “B”, “M”, “C”, “D” kabi toifalarga ajratiladi. Reyting natijalariga ko'ra ularga rag'bat va jazo choralari tatbiq etilib, bu orqali soliq to'lovchilarning xulq-atvorini tartibga solish maqsad qilingan. Mazkur reyting tizimi Xitoyning keng qamrovli ijtimoiy kredit tizimi bilan integratsiyalashgan bo'lib, soliq sohasidagi ishonchlilik ko'rsatkichlari boshqa iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar bilan birgalikda qaraladi[2].

Ushbu maqolada Xitoydagi soliq to'lovchilar reytingi tizimining ishlash mexanizmi, baholash mezonlari va reyting toifalari batafsil tahlil qilinadi[6]. Tizimning ijtimoiy kredit modeli doirasidagi integratsiyasi va soliqlar yig'ilishiga ta'siri o'rganiladi. Xitoy soliq organlari keng qo'llayotgan raqamli nazorat texnologiyalari – elektron deklaratsiyalar, onlayn invoislari va real vaqt monitoring tizimlari – tahlil qilinadi. “Bank–Soliq hamkorligi” dasturi misolida reyting natijalaridan foydalanib, kichik biznesni kreditlashni rag'batlantirish yoritiladi. Maqolada rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tizim samaradorligi ko'rsatkichlari keltiriladi. Yakuniy qismda Xitoy tajribasi boshqa davlatlar, xususan, O'zbekiston bilan solishtirilib, mavjud yondashuvlar va O'zbekiston sharoitida ushbu modelning moslashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xitoyda ijtimoiy kredit tizimi (Social Credit System) davlat tomonidan fuqarolar va tashkilotlarning turli sohalardagi ishonchlilik darajasini baholash va nazorat qilishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Ilk bor 2014-yilda sinov tariqasida yo'lga qo'yilgan ushbu tizim vaqt o'tishi bilan takomillashtirilib, 2020-yillarga kelib korporativ yuridik subyektlar uchun ham to'liq shakllantirildi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ijtimoiy kredit tizimining maqsadi jamiyatda qonunga rioya qilishni rag'batlantirish va ishonchli muhit yaratishdan iborat bo'lib, turli organlar hamkorlikda ma'lumot almashadi va tartibbuzarlarga nisbatan keskin jazo choralari ko'radi.

Soliq to'lovchilar reytingi tizimi ushbu ijtimoiy kredit mexanizmining muhim qismi sifatida qaraladi. Xitoy Davlat soliq boshqarmasi (State Taxation Administration – STA) 2014-yilda “Soliq to'lovchi kreditini boshqarish Ma'muriy choralari (sinov tartibida)” hujjatini qabul qilib, korporativ soliq



to'lovchilarning soliq intizomini baholash amaliyotini joriy etdi. 2018-yilda "Ma'muriy ko'rsatmalar" takomillashtirilib, soliq to'lovchilarni reytinglashda foydalaniladigan aniq mezonlar va metodologiya belgilandi. Bu yillarda Xitoy soliq organlari yalpi soliq ma'muriyatini raqamlashtirish va big data tahliliga o'tkaza boshladi – "Golden Tax" deb nomlanuvchi avtomatlashtirilgan tizim bosqichma-bosqich joriy qilinib, soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning integratsiyasiga erishildi. Natijada, soliq organlari real vaqt rejimida soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatini kuzatib borish, xavfli xatti-harakatlarni erta aniqlash va oldini olish imkoniga ega bo'ldi.

Akademik manbalarda qayd etilishicha, Xitoyda soliq ma'muriyati islohotlari soliq tushumlarining YalMga nisbatan salmog'ini ikki hissa oshirishga hamda soliq to'lovchilarning byurokratik yukini sezilarli kamaytirishga yordam bergan. Xususan, reyting tizimi joriy etilgach, soliq organlari soliq to'lovchilarga nisbatan differensial yondashuvni qo'llay boshladi. Soliq qonunchiligiga og'ishmay amal qiluvchilar uchun soddalashtirilgan tartib va imtiyozlar berilib, qonunbuzarlarga esa jazolar kuchaytirildi. STANing rasmiy hisobotida ta'kidlanishicha, bunday yondashuv soliq to'lash bilan bog'liq muvofiqlik xarajatlarini pasaytirib, umuman olganda soliq intizomini yuksaltirgan. Shu bilan birga, reyting natijalari boshqa davlat idoralari bilan ham baham ko'rilib, masalan, bojxona, ekologiya va sud organlari bilan birgalikda "halollikni rag'batlantirish va insofsizlikni jazolash" bo'yicha 50 dan ortiq idoralararo memorandumlar imzolangan. Bu Xitoyning soliq sohasidagi kredit ma'lumotlarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham integratsiya qilishga intilayotganini ko'rsatadi[6],[7].

O'zbekiston va boshqa davlatlarda soliq ma'muriyati sohasida Xitoynikiga o'xshash ommaviy reytinglash tizimi hali yaqindagina paydo bo'la boshladi. Ilgari aksariyat mamlakatlar soliq xavfini baholashning ichki (yopiq) tizimlariga tayanib, soliq tekshiruvlarini risk darajasiga qarab o'tkazar edi. Masalan, OECD mamlakatlarida keng qo'llaniladigan "Kooperativ muvofiqlik" modeli soliq organlari va yirik soliq to'lovchilar o'rtasida ixtiyoriy hamkorlikni nazarda tutadi hamda bunday yondashuvda ochiq reytinglardan ko'ra ishonchga asoslangan kelishuvlar muhimroq o'rin tutadi. Ammo so'nggi davrda raqamlashtirish tufayli ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham soliq sohasida oshkoralik va tartib-intizomni kuchaytirish maqsadida biznes subyektlarini reytinglash g'oyasiga qiziq boshladi. 2024-yilda O'zbekistonda "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" joriy etilgani va qisqa muddatda yuqori reytingga ega korxonalar soni sezilarli oshgani bunga misoldir.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xitoyda shakllangan soliq to'lovchilar reytingi tizimi o'ziga xos integratsion xususiyatlari va samaralari bilan ajralib turadi. Quyida ushbu tizimning batafsil mexanizmi, qo'llanilayotgan texnologiyalari va erishilgan natijalari tahlil qilinadi hamda boshqa davlatlar tajribasi bilan qiyosiy ko'rinishda yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda hujjatlar tahlili va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xitoy Davlat soliq boshqarmasining rasmiy hujjatlari, yillik hisobotlari va qonuniy-normativ hujjatlari (jumladan, 2014 va 2020-yillardagi soliq to'lovchi kreditini baholashga oid e'lonlar) o'rganilib, reyting tizimining me'yoriy bazasi va ishlash tartibi aniqlashtirildi[1],[3]. Shuningdek, Jahon banki[5], Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)[14] va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)[4] kabi xalqaro institutlarning Xitoy soliq islohotlari va ijtimoiy kredit tizimi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar ko'rib chiqildi.

Tadqiqot doirasida raqamli ma'lumotlar tahlili ham qo'llanildi. Xitoy soliq organlarining rasmiy statistik ko'rsatkichlari asosida grafikalar tuzilib, reyting tizimi samaradorligi vizual tarzda aks ettirildi. Qiyosiy tahlil uchun esa O'zbekiston misolida mahalliy amaliyot o'rganildi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida 2024-yildan joriy etilgan biznes subyektlari barqarorlik reytingi tizimining parametrlari va dastlabki natijalari tahlil qilinib, Xitoy tajribasi bilan solishtirildi. Bunda har ikki tizimning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash va O'zbekiston sharoitiga moslash imkoniyatlarini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, tadqiqot soliq intizomi yondashuvida olib borilib, soliq ma'muriyati, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy boshqaruv kesishmasida joylashgan muammolar majmuaviy ravishda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Xitoy soliq to'lovchilar reytingi tizimi yillik soliq hisobotlari asosida har bir korxonaning soliq qonunchiligiga rioya etish darajasini baholaydi. Tizimda soliq to'lovchilarning kredit ballari shakllantirilib, ularga qarab reyting toifasi beriladi. Hozirda korporativ soliq to'lovchilar uchun besh xil reyting kategoriyasi mavjud, ya'ni "A", "B", "M", "C", "D"[2].

"A" toifa – eng yuqori darajadagi ishonchlilik toifasi hisoblanadi. Ushbu toifa yillik baholash natijasida **90 va undan yuqori ball** to'plagan soliq to'lovchilarga beriladi. "A" reytingga ega korxonalar soliq intizomiga to'liq amal qiluvchi, qonunchilik talablari asosida faoliyat yurituvchi namunali subyektlar sifatida e'tirof etiladi[1]. Bu toifaga mansub korxonalar, odatda, soliq hisobotlarini o'z vaqtida va to'g'ri taqdim etadi, soliqlarni belgilangan muddatda to'liq to'laydi va boshqa idoralar tomonidan sanksiyalar qo'llanmagan yuridik shaxslardan iborat bo'ladi.

"B" toifa – qoniqarli darajadagi soliq intizomidagi toifa sifatida qaraladi. "B" toifa **70 dan 89 ballgacha** natija qayd etgan soliq to'lovchilarga beriladi. Ushbu toifaga kiruvchi korxonalarda ayrim kichik xatoliklar yoki texnik kamchiliklar bo'lishi mumkin, biroq umumiy soliq intizomi qoniqarli darajada bo'ladi. "B" toifadagi soliq to'lovchilar, odatda, soliq majburiyatlarini bajarsa-da, ayrim holatlarda deklaratsiyalarni kechiktirib topshirgan yoki soliq to'lovlarini muddatidan sal o'tkazgan bo'lishi mumkin. Bu toifadagi korxonalar reytingni oshirish uchun intizomni yanada mustahkamlashi lozim.

"M" toifa – yangi tashkil etilgan korxonalar uchun maxsus reyting. 2018-yilgi islohotlarga muvofiq joriy etilgan ushbu toifa faoliyatini endigina boshlagan, ya'ni hisobot yilida daromad ko'rsatmagan, biroq **70 balldan yuqori** natijaga ega bo'lgan yangi yuridik shaxslarga beriladi. "M" reyting vaqtinchalik toifa hisoblanib, korxonaning dastlabki faoliyat davrida soliq intizomini namoyon qilganini anglatadi. Bu toifa "B" reytingning muqobili bo'lib, korxonaning kelgusida "A" yoki "B" toifaga ko'tarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, "M" toifa korxonalarning kredit tarixini shakllantirish imkonini beradi.

"C" toifa – qoniqarsiz darajadagi soliq intizomi. "C" reyting toifasi **40 dan 69 ballgacha** bo'lgan soliq to'lovchilarga beriladi. Ushbu toifadagi korxonalarda soliq intizomiga doir jiddiy kamchiliklar mavjud bo'ladi. Bunday holatlarga soliq hisobotlarini muntazam ravishda kechikib topshirish, soliqlarni belgilangan muddatlarda to'lamaslik yoki hisobotlarda takroriy xatoliklarga yo'l qo'yish kiradi. "C" toifadagi soliq to'lovchilar kuchaytirilgan nazorat ostida bo'lib, ularning faoliyatiga nisbatan soliq organlari tomonidan profilaktik yoki tekshiruv choralarining kuchaytirilishi ehtimol qilinadi.

"D" toifa – ishonchsiz soliq to'lovchi. Bu toifa **40 balldan kam** natijaga ega bo'lgan yoki soliq qonunchiligini qo'pol ravishda buzgan korxonalarga nisbatan qo'llaniladi. "D" reytingli yuridik shaxslar odatda soliq organining "Qora ro'yxati"ga kiritiladi va ularga nisbatan qat'iy choralar ko'riladi. Ushbu korxonalar soliqdan qasddan bo'yin tovlagan, noto'g'ri deklaratsiyalar topshirgan yoki soxta hujjatlar bilan faoliyat yuritgan bo'lishi mumkin. "D" toifadagi soliq to'lovchilar kredit olish, tenderlarda ishtirok etish, bojxona operatsiyalarini bajarish va boshqa iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda jiddiy cheklolarga duch keladi.

Soliq organlari har bir soliq to'lovchi bo'yicha yil davomida yig'iladigan ko'rsatkichlarni belgilangan **indikatorlar tizimi** orqali baholaydi. Indikatorlar **ichki** va **tashqi** manbalarga bo'linadi, masalan, soliq deklaratsiyalari va to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar, chiqarilgan elektron schyot-fakturalar, soliq tekshiruvlari va audit natijalari, davlatning boshqa organlaridagi (bojxona yoki sud) moliyaviy xulq-atvor haqidagi ma'lumotlar kabilar hisobga olinadi.


Har yili boshida soliq to'lovchiga bazaviy ball beriladi va yil davomida qoidabuzarliklari aniqlansa, ballardan ma'lum miqdorlar ayirib boriladi (1-jadval). Masalan, soliq deklaratsiyasini belgilangan muddatdan kech topshirish, soliqlarni kechikib to'lash, hisob-kitob hujjatlarida xatoliklarga yo'l qo'yish kabi holatlar aniqlansa, har birining og'irligiga qarab ballar kamaytiriladi. Natijada yil yakuniga kelib har bir soliq to'lovchining yakuniy balli va reyting toifasi aniqlanadi. Agar korxona yil davomida hech qanday jiddiy qoidabuzarlikka yo'l qo'ymasa, aksincha soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lab borsa, uning ballari yuqori bo'lib, "A" yoki "B" toifada qoladi. Aksincha, qoidabuzarliklar ko'paysa, ball keskin tushib, "C" yoki "D" toifaga tushishi mumkin (1-jadval).



1-jadval. Xitoy soliqlik to'lovchilar reytingi tizimidagi toifalar va ularning asosiy mezonlarini.

Reyting toifasi	Ball darajasi (yillik)	Tavsif va holat
“A”	≥ 90 ball	Eng yuqori soliq intizomiga ega ya'ni qonuniy talablarni to'liq bajargan namunali soliq to'lovchi.
“B”	70–89 ball	Yaxshi holatda, ayrim kamchiliklari bo'lishi mumkin, lekin umuman olganda qoniqarli soliq intizomiga ega.
“M” (maxsus)	> 70 ball (yangi korxona, daromadi yo'q)	Yangi tashkil etilgan subyekt; faoliyatining dastlabki yilida soliqqa oid ko'rsatkichlari yaxshi (70 balldan yuqori), ammo hali to'liq tarixga ega emas.
“C”	40–69 ball	Past darajadagi soliq intizomi. Soliq qonunchiligini buzish holatlari mavjud, ishonchlilik darajasi past.
“D”	< 40 ball yoki qonunbuzarlik tufayli to'g'ridan-to'g'ri tayinlangan	Eng yomon ko'rsatkich. Jiddiy soliq qonunbuzarliklari sodir etgan yoki umuman soliq majburiyatlarini bajarmagan ishonchsiz to'lovchi.

Rasmiy statistikaga ko'ra, Xitoyda dastlab reyting tizimi joriy etilgan ilk yillarda soliq to'lovchilarning katta qismi o'rtacha toifa “B” yoki “C”da bo'lgan, eng yuqori “A” va eng quyi “D” toifalardagilar nisbatan kam ulushni tashkil etgan. Masalan, 2017-yil yakunlari bo'yicha baholangan 23,88 million soliq to'lovchi korxonaning atigi **4,58%** qismi “A” reytingini olgan bo'lsa, **4,93%** eng quyi “D” reytingiga tushirilgan edi. Bu shuni anglatadiki, qariyb 90% ga yaqin korxonalar “B” yoki “C” toifada qolgan. Bunda “A” toifaga kirish talablari nihoyatda yuqori bo'lib, faqat eng intizomli va halol soliq to'lovchilargina ushbu yuksak maqomga erishgan. Quyidagi diagrammada soliq to'lovchilarning reytinglar bo'yicha taqsimoti (% hisobida) grafik tarzda aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. Xitoy Xalq Respublikasida soliq to'lovchilarning reytinglar bo'yicha taqsimoti.

Xitoy Davlat soliq boshqarmasining 2017-yil yakunlari bo'yicha bergan ma'lumotlariga ko'ra, reyting tizimi orqali baholangan 23,88 million korporativ soliq to'lovchining atigi 4,6 foizi "A" toifaga, ya'ni eng yuqori darajadagi ishonchli soliq to'lovchilar safiga kiritilgan. Eng quyi ya'ni "D" reyting toifasiga esa 4,9 foiz kompaniyalar tushgan. Qolgan korxonalarining deyarli 90 foizi "B" va "C" reyting toifalarida, ya'ni o'rtacha intizom ko'rsatkichlariga ega toifalarda baholangan. Ushbu taqsimot Xitoyda soliq reytingi tizimi ehtiyotkor va qat'iy baholash mezonlariga asoslanganini, reyting natijalari esa kompaniyalarning davlat nazorati va bozor muomalasidagi ishonchlilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Ko'rinib turibdiki, reyting tizimi korxonalarning soliq intizomi darajasidagi tafovutlarni yaqqol ko'rsatib beradi. Keyingi yillarda soliq organlari olib borgan targ'ibot va rag'bat choralari tufayli "A" toifaga intiluvchi korxonalar soni oshib borishi kuzatilgan. Shu bilan birga, muntazam qoidabuzarlik qiladigan "D" toifadagilar ulushi ham pasayishga moyil bo'lgan. Masalan, quyida O'zbekiston misolida keltiriladigan ma'lumotlarda yuqori reytingga ega bo'lishga intilish tadbirkorlar xatti-harakatiga sezilarli ta'sir qilishi mumkinligi ko'rinadi.

Xitoy soliq to'lovchilar reyting tizimi mustaqil izolyatsiyalangan tizim bo'lib qolmay, balki mamlakatning keng qamrovli ijtimoiy kredit modeliga uzviy integratsiyalashgan. Xitoy hukumatining maqsadi har bir subyekt uchun turli sohalaridagi ishonchlilik baholarini uyg'unlashtirib, bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar orqali jamiyatda **"Halollik mukofotlanadi, insofsizlik jazolanadi"** tamoyilini qaror toptirishdir. Shu bois soliq organlari o'z reyting natijalarini boshqa davlat idoralari bilan faol almashadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy Davlat soliq boshqarmasi turli vazirlik va idoralar bilan 50 dan ziyod hamkorlik kelishuvlarini imzolagan bo'lib, ularda soliq kredit reytingi natijalari asosida birgalikda rag'batlantirish va jazo choralari qo'llash ko'zda tutilgan. Masalan, soliq organi "A" reytingga ega korxonalar ro'yxatini bojxona xizmati, banklar, tender komissiyalari kabi tuzilmalarga taqdim etadi. Natijada bunday korxonalar bojxona nazoratida yengilliklar, bank kreditlari ajratishda ijobiy ko'rinish, davlat xaridlari tenderlarida yuqori ishonch qozonadilar. Aksincha, "D" reytingga ega subyektlar insofsiz soliq to'lovchi degani. Bu boshqa idoralar uchun ham ogohlantiruvchi signal bo'lib, bunday korxonalar sud tomonidan qora ro'yxatlarga kiritilishi, tenderlarda qatnasha olmasligi yoki davlat subsidiyalaridan mahrum etilishi mumkin.

Xitoyning ijtimoiy kredit tizimida yagona "Credit China" deb nomlangan portal mavjud bo'lib, turli idoralar ma'lumotlari u yerga jamlanadi. Soliq reytingi natijalari ham ushbu umumiy bazaga ulanadi. Shu tariqa, har bir kompaniya bo'yicha ijtimoiy kredit hisobotida uning soliq intizomi darajasi ko'rsatilgan bo'ladi. Ma'lumotlarning bunday integratsiyasi Xitoy hukumatiga kompleks nazoratni amalga oshirish va har bir subyektning "Ishonchlilik profilini" shakllantirish imkonini bermoqda.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy kredit tizimida hozircha yagona integratsiyalashgan reyting balli joriy qilinmagan ya'ni har bir soha bo'yicha alohida reytinglar yuritiladi. Ammo kelgusida barcha sohalarini qamrab oladigan yagona kombinatsiyalashgan reyting yoki indeks yaratish takliflari mavjud. Xitoy ekspertlari nazarida, ayniqsa yuridik shaxslar (korporativ subyektlar) uchun soliq, bojxona, sanitariya-epidemiologiya, mehnat qonunchiligi kabi ko'rsatkichlarni birlashtirib umumiy korporativ ishonchlilik reytingini tuzish biznes muhitni yanada sog'lomlashtiradi va halol tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshiradi.

Xitoy soliq organining ijtimoiy kredit modelidagi faol ishtiroki tufayli soliq reytingi natijalari jamiyatda muhim o'rin egalladi. Masalan, "A" reytingli soliq to'lovchi atamasi jamiyatda "Soliq to'lash intizomiga eng sodiq kompaniya" sinonimi sifatida tushunilmoqda. Ko'plab korxonalar obro'sini oshirish maqsadida "A" reytingga ega ekanliklarini reklama qilishadi, chunki bu ularning biznes hamkorlari, investorlar va kreditorlarga nisbatan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, D reyting "Uyat taxtasi" rolini o'ynab, korxonalarni bunday tamg'adan qochishga undaydi.

Umuman olganda, Xitoy soliq reytingi tizimi ijtimoiy kredit modelining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, davlat boshqaruvida kompleks yondashuv samaradorligini namoyish etmoqda. Bunday integratsiya boshqa davlatlar tajribasida hozircha kam kuzatiladi va Xitoy ushbu yo'nalishda yetakchi mamlakat hisoblanadi.



Soliq to'lovchilar reytingi tizimi joriy qilinishining asosiy maqsadlaridan yana biri bu **soliq yig'uvchanligini oshirish**, ya'ni ixtiyoriy soliq to'lovni rag'batlantirish va soliq bazasini kengaytirishdir. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishishda reyting tizimi muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Tizim doirasida soliq organlari rag'batlantiruvchi va jazolovchi mexanizmlarni ishlab chiqqan bo'lib, ular orqali soliq to'lash intizomini yaxshilashga erishilmoqda.

"A" reytingga ega soliq to'lovchilar uchun qator imtiyoz va qulayliklar nazarda tutilgan. Xususan, bunday korxonalar soliq organidan tezkor va soddalashtirilgan xizmatlar oladi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra, "A" toifali to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari minimal darajada o'tkaziladi yoki umuman o'tkazilmaydi, ortiqcha to'langan soliq summalarining qaytarilishi ustuvor ravishda qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha ortiqcha to'lovlarni qaytarish odatda murakkab jarayon bo'lsa-da, "A" reytingli korxonalar bu summalarni tez fursatda, soddalashtirilgan tartibda qaytarib olishi mumkin. Bunday amaliyot korxonalarning aylanma mablag'larini muzlatib qo'ymaslik va ularga moliyaviy yengillik yaratish maqsadida joriy etilgan. Shuningdek, "A" reyting egalari katta qiymatdagi soliq schyot-fakturalarini qo'shimcha tekshiruvlarsiz olish huquqiga ega. Bu ularning biznes operatsiyalarini yengillashtiradi.

Yuqori reytingli korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan **"Ishonchli soliq to'lovchi uchun yashil yo'lak"** tamoyili, aslida, soliq organi va tadbirkorlik subyekti o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Korxona halol soliq to'lasa, davlat ham uni qo'llab-quvvatlaydi. STA hisobotida qayd etilishicha, aynan reyting natijalarini qo'llagan holda soliq organi korxonalar uchun muvofiqlik xarajatlarini pasaytirishga va shu orqali ularning soliq majburiyatlarini bajarishini osonlashtirgan. Bu, o'z navbatida, ko'proq korxonalarni soliqni vaqtida to'lashga undaydi.

Boshqa tomondan, "D" reytingli soliq to'lovchilarga nisbatan kuchaytirilgan nazorat va cheklovlar joriy etilgan. Masalan, "D" toifadagi korxonalar soliq organlari tomonidan yuqori xavfli to'lovchi sifatida belgilanishi natijasida ularning faoliyati tez-tez tekshiruvlarga tortiladi. Soliq inspeksiyalari bunday korxonalarni rejadan tashqari ham ko'proq tekshirishi mumkin, bu esa tadbirkorga ortiqcha noqulaylik tug'diradi. Shuningdek, "D" reytingli kompaniyalar uchun ba'zi soliq imtiyozlari yoki qaytarib berish amaliyotlari vaqtincha to'xtatiladi. Masalan, QQS qoldiqlarini qaytarib olish huquqi vaqtincha cheklanadi yoki faqat keng qamrovli tekshiruvdan so'ng amalga oshiriladi. Bundan maqsad qoidabuzar korxonani tartibga chaqirish va boshqalarga saboq bo'ladigan muhit yaratishdir.

Reyting tizimi tatbiq etilgach, soliqlarning yig'ilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ayrim statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Masalan, O'zbekistondagi o'xshash tajribaga murojaat qilsak, Savdo-sanoat palatasi xabariga ko'ra, bir yil ichida yuqori reytingga ega bo'lishga intilgan tadbirkorlar soni keskin oshgan va 53,5 mingta korxona avvalgi yilga nisbatan soliq deklaratsiyalarini o'z vaqtida topshirishni boshlagan. Bu shuni ko'rsatadiki, reytingdagi yuqori baho masalan, "AAA" reytingga erishish istagi korxonalarning soliqqa oid xulqini ijobiy tomonga o'zgartirgan. Natijada soliqlarning o'z vaqtida to'lanishi ham ortgan, soliq intizomi mustahkamlangan.

Xitoyda ham bevosita reyting joriy etilgach soliq tushumlari dinamikasida ijobiy siljish kuzatilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari Xitoyda soliq ma'muriyati islohotlari natijasida 1990-yillardan 2010-yillarga qadar soliqlarning YalMdagi ulushi ikki barobarga oshganini qayd etishadi. Albatta, bu o'sishga turli omillar hissa qo'shgan, lekin soliq intizomini yaxshilash bo'yicha choralarning ham ulushi borligi shubhasiz. Soliq organlari vakillari reyting tizimi tufayli ko'ngilli to'lov darajasi oshganini ta'kidlashadi. Chunki endi korxonalar yuqori reyting olish evaziga ancha foyda ko'rishini anglashi va soliqni vaqtdan kechiktirmay to'lashi kuzatilmoqda.


Xulosa o'rnida aytganda, reyting tizimi soliq yig'uvchanligini oshirishga ikkita yo'l bilan xizmat qiladi. Birinchidan **rag'bat orqali** ya'ni yaxshi to'lovchi bo'lish foydaliroq ekani ko'rsatiladi. Ikkinchidan **jazo orqali** yomon to'lovchi bo'lish zararliligi tushuntiriladi. Bu ikki omil birgalikda soliq intizomini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Tizimdagi ochiqlik har bir korxona o'z reytingini bilishi va boshqalar bilan taqqoslashi esa sog'lom raqobat uyg'otib, halol soliq to'lash jamiyat madaniyatining bir qismiga aylanishiga zamin yaratadi.

Xitoyda soliq to'lovchilar reytingi tizimini samarali amalga oshirishda zamonaviy raqamli nazorat texnologiyalari muhim rol o'ynadi. So'nggi yillarda Xitoy soliq organi soliq ma'muriyatini raqamlashtirish bo'yicha ulkan yutuqlarga erishdi. **Elektron soliq byurosi** (onlayn portal) ishga

tushirildi, soliq hisobotlarini internet orqali topshirish, soliqlarni masofadan turib to'lash imkoniyatlari yaratildi. Xususan, **“Golden Tax IV”** deb nomlanuvchi ilg'or axborot tizimi mamlakat bo'ylab joriy etilib, u orqali soliq deklaratsiyalari, elektron schyot-fakturalar (e-fapiao) va boshqa moliyaviy ma'lumotlar yagona bazada jamlanib real vaqt rejimida kuzatila boshlandi[3].

Bunday integratsiyalashgan raqamli platformalar orqali soliq organlari endilikda korxonalarning xo'jalik operatsiyalarini onlayn tarzda monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Misol uchun, korxona tomonidan chiqarilgan va qabul qilingan elektron schyot-fakturalar, bankdagi hisobvaraqlariga tushgan pul oqimlari, bojxonadan rasmiylashtirgan yuk hujjatlari barchasi soliq tizimida birlashtirildi. Natijada, agar korxona soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga urinadigan bo'lsa yoki shubhali aktiv aylanmalarni amalga oshirsa, buni tizim maxsus alguritom yordami bilan tezda aniqlay oladi. Xitoy soliq xizmati mutaxassislari qayd etishicha, real vaqt rejimidagi monitoring tufayli potensial qonunbuzarliklar bo'yicha erta ogohlantirish berish va tezkor choralar ko'rish imkoni paydo bo'lgan.

Elektron hisob-fakturalar (e-fapiao) Xitoy soliq ma'muriyatining raqamli nazoratdagi muhim elementlaridan biri. 2020-yilga kelib Xitoy bo'ylab QQS bo'yicha to'liq elektron schyot-faktura tizimi sinov tariqasida joriy etila boshladi. Hozirda mamlakatning ko'plab hududlarida qog'oz schyot-fakturalar o'rnini raqamli QR-kodli e-fapiao bosmoqda. Bu tizim elektron fakturalarning haqiqiylikni tasdiqlash, ularni qalbakilashtirishning oldini olish choralari ko'rilgan. Natijada soliqqa oid tranzaksiyalar butunlay raqamli izga ega bo'lib, soliq organi uchun **“g'irromlik oynasi”** deyarli yopilmoqda. Har bir savdo va har bir soliq to'lovi tizimda aks etadi (2-rasm).



2-rasm. Xitoy hududida soliq deklaratsiyalarning elektron qamrovi.

Onlayn soliq deklaratsiyalari qamrovi ham Xitoyda nihoyatda yuqori darajaga yetgan. Xalqaro moliyaviy institutlar va Xitoy Davlat soliq boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Xitoyning aksariyat hududlarida soliq bilan bog'liq xizmatlar to'liq raqamlashtirilgan. Jumladan, soliq deklaratsiyalari, to'lov topshiriqlari, elektron schyot-fakturalar (e-fapiao) va boshqa muhim hujjatlar internet orqali real vaqt rejimida taqdim etilmoqda (2-rasm). Ko'plab provinsiyalar va yirik shaharlarda soliq deklaratsiyalarining 90–95 foizi elektron shaklda topshirilmoqda, ayrim rivojlangan hududlarda bu ko'rsatkich 97–99 foizgacha yetgan.

Masalan, Pekin, Shanxay va Guanchjou kabi yirik iqtisodiy markazlarda soliq to'lovchilarning mutlaq ko'pchiligi soliq organlari bilan faqat elektron aloqa orqali ishlaydi. Bu esa nafaqat ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi, balki korxonalarga vaqt va resurs tejash imkonini yaratadi. Shu bilan birga,



soliq organlari uchun nazoratning aniqligi va tezkorligi oshadi, riskli operatsiyalarni oldindan aniqlash imkoniyati kengayadi.

Ko'rinib turibdiki, Xitoy soliq organlari qisqa vaqt ichida soliq ma'muriyati jarayonlarini deyarli to'liq raqamlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu transformatsiya reyting tizimining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylandi. Sababi, barcha kerakli ma'lumotlar yagona raqamli platformada jamlanishi orqali soliq to'lovchilarni baholash jarayoni yanada aniqlashdi, inson omiliga bog'liq subyektiv xatoliklar esa minimal darajaga tushdi.

Agar ilgari soliq inspektorlari korxonaning faoliyatini qo'lda tekshirib, subyektiv baholashga tayanar edi, hozirda bu jarayon avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida amalga oshirilmoqda. Tizim turli ko'rsatkichlar ya'ni soliq to'lov intizomi, elektron hujjatlar, deklaratsiya muddatlari va boshqalar asosida kredit ballarini mustaqil hisoblab chiqadi hamda natijalarga ko'ra reyting toifasini belgilaydi. Bu esa nafaqat tezkor va adolatli baholashni ta'minlaydi, balki fiskal boshqaruvda shaffoflik va ishonchlikni mustahkamlaydi.

Raqamli nazorat soliq organiga nafaqat baholash, balki maqsadli profilaktika imkonini ham berdi. Misol uchun, agar biror korxonada ball keskin tushib ketish tendensiyasi kuzatilsa, soliq qarzi ortib borayotgan bo'lsa yoki fakturalarda nomutanosiblik aniqlansa, tizim avtomatik ravishda bu korxonani xavf guruhiga kiritadi va soliq mutasaddilariga signal yuboradi. Shundan so'ng soliq organi korxonaga ogohlantirish yuborishi yoki tushuntirish ishlari uchun bog'lanishi mumkin. Natijada, qoidabuzarlik jiddiy ko'rinishga kelmasdan oldin uning oldi olinadi, korxona esa "D" reytinggacha qulashdan saqlanadi.

Xitoy soliq tizimining raqamli transformatsiyasi pandemiya davrida ham o'z samaradorligini ko'rsatdi. Masalan, COVID-19 cheklovlari davrida 2020-yil fevral–mart oylarida Pekin, Shanxay, Chuntsin shaharlarida soliq bilan bog'liq masalalarning 95% onlayn ko'rib chiqilib, shu jumladan korxonalarning 99% deklaratsiya va to'lovlari masofadan amalga oshirilgan. Bu karantin sharoitida ham soliq yig'imini barqaror amalga oshirishga va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda uzilish bo'lmasligiga zamin yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar Xitoy soliq to'lovchi reytingi tizimining "yuragi" desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu tizim yordamida millionlab soliq to'lovchilarning harakatlarini tahlil qilish va ularni baholash imkoni yaratilgan. Bu nafaqat soliq intizomini oshirdi, balki soliq organining o'z ish samaradorligini ham bir necha barobarga ko'tardi. Avvallari bir nechta tekshiruv bilan qamrab olinadigan korxonalar soni cheklangan bo'lsa, hozir butun registr nazorat ostida. Bu yondashuv, shak-shubhasiz, boshqa davlatlar soliq tizimi uchun ham o'rnak bo'la oladi.

Xitoy soliq to'lovchilar reytingi natijalarini xususiy sektor bilan hamkorlikda foydalanish borasida diqqatga sazovor tashabbus – bu **"Bank-Soliq hamkorligi"** (银税互动 - *Yín Shuì Hùdòng* - Bank va soliq organlari o'rtasidagi raqamli hamkorlik) mexanizmidir. Ushbu dastur mohiyatan soliq organlari va tijorat banklari o'rtasida ma'lumot almashinuvi va hamkorlikni nazarda tutadi. Uning doirasida banklar soliq organidan halol soliq to'lovchilar haqida axborot olib, ularga nisbatan kreditlashda qulay sharoitlar yaratadi.

Xitoyda kichik va o'rta biznes ko'pincha garov ta'minoti yetishmasligi yoki kredit tarixi yo'qligi sababli bankdan kredit olishda qiynalar edi. "Bank-Soliq hamkorligi" tashabbusi esa aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan innovatsion yechim bo'ldi. Davlat soliq boshqarmasi Xitoy Bankni nazorat qilish qo'mitasi (CBRC) bilan hamkorlikda maxsus loyiha ishlab chiqdi. Unga ko'ra, "A" va "B" reytingli (hatto keyinchalik "M" reytingli yangi) korxonalar to'g'risidagi ijobiy soliq intizomi ma'lumotlari banklarga taqdim etiladi. Banklar esa bunday mijozlarga kredit ajratishda yengilliklar ya'ni past foiz stavkalari, tezkor rasmiylashtirish yoki hatto garovsiz kredit liniyalari beradi. Bu hamma uchun manfaatli. Halol korxona moliyaviy resursga erkinroq ega bo'ladi, bank esa ishonchli qarzdorga ega bo'ladi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, dastlab ushbu loyiha sinov tariqasida ayrim banklarda joriy qilinganda faqat "A" va "B" reytingli kompaniyalar qamrab olingan edi. Biroq loyiha muvaffaqiyatli chiqib, ko'plab korxonalar foyda ko'rgach, uning doirasi kengaytirildi. Hatto "M" reytingli yangi korxonalar ham jalb qilindi. Masalan, 2020-yil boshida Pekin, Shanxay, Chuntsin va Guanchjou shaharlarida ushbu "Bank-Soliq hamkorligi" orqali atigi uch oy ichida 15 199 ta korxona umumiy miqdori 9,996 milliard

yuan (taxminan 1,5 mlrd AQSh dollari) kredit oldi. E'tiborlisi, dastlab faqat "A" va "B" reytingdagilar qatnashgan loyiha doirasi "M" reytingdagilarga ham kengaytirilgach, ishtirokchi korxonalar soni bir zumda ikki baravarga oshgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'plab yangi va kichik bizneslar soliq intizomini saqlagan holda bankdan qarz olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

"Bank-Soliq hamkorligi" mexanizmi Xitoyda davlat va xususiy sektor ma'lumot almashinuvi qanday samarali natija berishi mumkinligining yorqin misolidir. An'anaviy jihatdan banklar mijozning kredit to'lov qobiliyatini uning moliyaviy hisobotlari va kredit tarixiga qarab baholar edi. Endilikda esa soliq organining bahosi ham muhim indikator sifatida qo'shildi. "A" reytingli soliq to'lovchi bank uchun ham ishonchli mijoz degani. Shu bois yirik banklar, xususan, China Construction Bank (CCB) onlayn platformalar orqali soliq organi bilan integratsiyalashgan holda kichik biznesga kreditlar taklif qilishni yo'lga qo'ydi.

Bu dastur natijasida, bir tomondan, halol soliq to'lovchilarning moliyaviy resurslarga erishish yaxshilandi. Ular biznesini kengaytirish uchun zarur mablag'ni oson olmoqda. Ikkinchi tomondan, bu ham halol soliq to'lashga rag'batni kuchaytiradi. Agar korxona soliqlardan qarzдор bo'lsa yoki "D" reyting tufayli "qora ro'yxat"da bo'lsa, bankdan kredit ololmasligini biladi. Demak, bankdan qarz olishni rejalashtirgan tadbirkor avvalo soliq qarzlarni uzishga va intizomni yaxshilashga intiladi. Shu orqali yana soliq yig'uvchanligi bilvosita oshadi.

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq intizomi yuqori bo'lgan tadbirkorlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash nafaqat kredit tizimining xavfsizligini oshiradi, balki soliq bazasini kengaytirish, ixtiyoriy soliq to'lov madaniyatini shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu sababli, Xitoyda joriy etilgan bank-soliq axborot hamkorligi mexanizmi orqali yuqori reytingli korxonalar banklardan kafolatsiz, tezkor kredit olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu modelga o'xshash yo'nalishlar shakllana boshladi. Jumladan, 2024-yildan boshlab amaliyotga tatbiq etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi orqali "AAA" toifadagi korxonalarni rag'batlantirish maqsadida ularni soliq tekshiruvlaridan ozod etish, QQS ortiqcha summasini 1 kunda qaytarish, importdagi QQSni o'zaro hisobga olish hamda banklar tomonidan kreditlashda tavsiya etish kabi mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlash belgilangan[7],[10].

Bu esa O'zbekistonning ham Xitoy yo'nalishidagi yondashuvni tanlaganini, ya'ni halol soliq to'lovchilarni tizimli rag'batlantirish orqali fiskal intizom va moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytirish strategiyasini amalda qo'llayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilish mumkinki, Xitoyning "Bank-Soliq hamkorligi" mexanizmi soliq reytingi tizimining multiplikativ samarasini oshirdi. Endi reyting nafaqat davlat nazoratida, balki tadbirkorning kundalik iqtisodiy faoliyatida, uning kredit olish imkoniyatlarida ham muhim omilga aylandi. Bu esa korxonalarning soliq intizomiga jiddiy yondashishiga qo'shimcha turtki beradi va mamlakatda biznes muhitining sog'lomlashuviga xizmat qiladi.

Xitoyning soliq to'lovchilar reytingi tizimi dunyoda nisbatan noyob hodisa bo'lsada, uning ayrim jihatlarini boshqa davlatlarda ham kuzatish mumkin. Xususan, sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi ayrim davlatlar masalan, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonda soliq va biznes subyektlarini baholash tizimini joriy etilgan. Bu bo'limda asosan O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil qilinadi, chunki O'zbekiston 2024-yildan boshlab Xitoyga o'xshash biznes barqarorligi reytingi tizimini yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonda 2024-yil 1-fevraldan boshlab Savdo-sanoat palatasi huzurida "Biznes subyektlarining barqarorlik reytingi" joriy etildi. Ushbu tizimda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi va halollik ko'rsatkichlari asosida ularga "AAA", "AA", "A", "BBB", "BB", "B", "CCC", "CC", "C", "D" kabi reytinglar berilishi belgilandi. Qisqa fursatda ushbu reyting tizimi muayyan natijalarni ko'rsatdi. Masalan, e'lon qilingan paytda juda oz sonli kompaniyalar "AAA" reytingiga ega bo'lgan bo'lsa, oradan bir yil o'tib "AAA" reytingli kompaniyalar soni 45 barobarga oshdi. 2024-yil davomida minglab korxonalar o'z faoliyatini shaffoflashtirib, soliqlarni vaqtida to'lab, bu yuqori reytingga intilgani natijasida "AAA" olganlar keskin ko'paydi. Natijada 2024-yilda "AAA" reytingga ega korxonalar QQS qoldiqlarini tekshiruvlarsiz, atigi bir kun ichida qaytarib olish huquqiga ega bo'lib, 1,8 trillion so'mdan ortiq QQS ortig'i tezda qaytarib berildi. Bu Xitoydagi "A" reyting imtiyozlariga juda o'xshash. Har ikkala holatda yuqori reyting halol soliq to'lovchi uchun tezkor QQS qaytimi imkonini bermoqda.



O'zbekiston reyting tizimida ham xuddi Xitoyda bo'lgani kabi yuqori reyting egalari davlat tekshiruvlaridan muayyan muddatga ozod qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-1000-sonli¹ Qonuni bilan "AAA" reytingli korxonalarni reja bo'yicha soliq tekshiruvlaridan ozod etish belgilandi. Faqat jinoiy holatlar soliqdan qasddan bo'yin tovlash kabi mavjud bo'lgandagina bunday korxonada tekshiruv o'tkazilishi mumkinligi qayd etildi. Bu mazmunan Xitoyning "A" reytingli korxonalarni kam tekshirish amaliyotiga mos keladi. Shuningdek, O'zbekistonda "AAA" reytingga ega subyektlarga boshqa soliqlardan ortiqcha to'langan summalarni ham uch kun ichida qaytarish tartibi joriy qilindi. Bu ham tadbirkorlikka katta yengillik.

O'zbekiston reyting tizimida baholash mezonlari qatorida soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish alohida urg'u bilan kiritilgan. Ya'ni, kompaniya reytingi belgilanayotganda uning soliq deklaratsiyalarini vaqtida topshirishi va soliqlarini to'liq to'lashi eng muhim omillardan biri sifatida ko'riladi. Bu Xitoy tizimidagi ichki indikatorlarga to'liq mos tushadi. Har ikkala tizimda ham vaqtida deklaratsiya topshirish va to'lov qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, O'zbekistonda reytingni belgilashda qarzдорlikning yo'qligi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va davlat organlaridan jarima-sanksiyalarning mavjud emasligi kabi mezonlar ham bor. Xuddi shunday omillar Xitoy soliq reytingi tizimida ham hisobga olinadi (2-jadval).

Asosiy farq shundaki, O'zbekistondagi tizim soliq organi tomonidan emas, balki Savdo-sanoat palatasi hamkorligida yuritilmoqda va umumiy biznes barqarorligini baholaydi. Ya'ni, unda soliq intizomi bilan bir qatorda korxonaning moliyaviy holati (daromadligi, qarzдорligi) ham inobatga olinadi. Xitoyda esa soliq reytingi sof soliq bilan bog'liq ko'rsatkichlarga tayanadi. Lekin amalda ikki tizim ko'p jihatdan o'xshash, halol soliq to'lagan, foydada ishlayotgan, qarzi yo'q va hujjatlari tartibli korxona har ikkisi ham eng yuqori reyting oladi (2-jadval).

2-jadval. Xitoy va O'zbekiston soliq reyting tizimi taqqoslamasi.

T/r	Taqqoslash mezonlari	Xitoy	O'zbekiston
1.	Reyting tizimi joriy qilingan yil	2014-yil	2024-yil
2.	Reyting toifalari soni	5 (A–D, M)	10 (AAA–D)
3.	Baholash subyekti	Davlat soliq boshqarmasi (STA)	Savdo-sanoat palatasi va DSQ hamkorligida
4.	Reyting asoslari	Soliq intizomi, e-fakturalar, sud,bojxona sanksiyalari	Soliq va moliyaviy intizom, ijtimoiy mezonlar
5.	Yuqori reyting imtiyozlari	Soliq tekshiruvlardan ozod, QQS qaytimi soddalashtirilgan	Soliq tekshiruvlardan ozod, QQS 1 kunda, kredit tavsiyasi
6.	Reytingdan foydalanish sohasi	Soliq baholash, kreditga ruxsat, davlat bilan hamkorlik	Soliq, kredit, biznes jarayonlar
7.	Reytingning shaffofligi	Qisman ochiq, rasmiy veb-sayt orqali e'lon qilinadi	To'liq ochiq, reyting palata saytida e'lon qilinadi
8.	Real vaqt monitoring	Ha	Ha

O'zbekistonda joriy qilingan reyting tizimi natijalari ham Xitoydagiga o'xshash ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. Oldin soliq organi talablarini bajarmagan ko'plab korxonalar endi reytingni oshirish maqsadida o'zlarini tartibga soldi. Masalan, eng quyi "D" reytingli korxonalar soni bir yilda 2 baravar kamaydi. Bu esa soliqlar yig'ilishi va biznesda qonuniylik oshganidan dalolat beradi.

¹ <https://lex.uz/docs/-7221608>

Boshqa davlatlar bilan qiyoslaganda, Xitoy va O'zbekiston tajribalarining o'xshashligi ulardagi islohotlar "raqamlashtirish va oshkoralik" tamoyiliga asoslanganidir. Masalan, Rossiyada hozircha soliq to'lovchilar uchun ommaviy reyting yo'q, biroq soliq organi ichki risk baholash tizimi va halol soliq to'lovchi sertifikatlar mavjud. Yevropa davlatlarida esa ochiq soliq reytingi amaliyoti yo'q, ammo yirik kompaniyalar uchun soliq sohasida shtatlararo oshkoralik indeksi kabi tushunchalar paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida Xitoy tajribasini to'liq tatbiq etishda albatta ba'zi cheklovlar va moslashtirish zaruriyatlari mavjud. Avvalo, Xitoydagidek keng qamrovli ijtimoiy kredit infratuzilmasi va ma'lumotlar integratsiyasi O'zbekistonda hali yo'lga qo'yilmagan. Lekin bosqichma-bosqich buning asosi yaratilmoqda. Masalan, turli davlat organlari bazalarini birlashtiruvchi "Hududiy idoralararo yagona platforma"lar joriy etilmoqda.

Xulosa o'rnida aytganda, Xitoy va O'zbekiston reyting tizimlari taqqosi shuni ko'rsatadiki, umumiy maqsad va vazifa bir ya'ni soliq va biznes intizomini oshirish, halol tadbirkorni qo'llab-quvvatlash. Faqat Xitoy buni ijtimoiy kredit konsepsiyasi doirasida juda keng ko'lamda amalga oshirgan bo'lsa, O'zbekiston hozircha faqat iqtisodiy barqarorlik va soliq intizomi prizmasidan joriy etmoqda. Lekin har ikkisi ham raqamlashtirish yutuqlariga tayanadi va natijalari samarali bo'layotgani kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xitoy tajribasi soliq sohasida intizom va oshkoralikni ta'minlash uchun innovatsion yechim sifatida soliq to'lovchilar reytingi tizimini yaratganini ko'rsatadi. Ushbu tizim orqali millionlab soliq to'lovchi korxonalar yillik soliq ma'naviyati va qonunga rioya qilish darajasiga qarab "A", "B", "M", "C", "D" kabi toifalarga ajratilib, ularga differensial yondashuv qo'llanilmoqda. Tizimning mexanizmi aniq belgilangan baholash mezonlariga asoslanadi. Vaqtida deklaratsiya topshirish, soliqlarni to'lash, hujjatlar shaffofligi, boshqa idoralarda jazolanmaganlik kabi ko'rsatkichlar korxonaning kredit ballini shakllantiradi. Eng yuqori ball to'plaganlar "A" reyting olib, biznesda va davlat idoralari nazarida qator imtiyozlarga ega bo'lsa, eng quyi reytingli "D" toifalar "qora ro'yxat"ga tushib, kuchaytirilgan nazorat va cheklovlarga uchramoqda. Bunday rag'bat va jazo tizimi soliq yig'uvchanligini oshirishga xizmat qilayotgani ma'lum halol soliq to'lovchi ko'payib, qoidabuzarlar kamaymoqda, bu esa davlat byudjetiga tushumlarning barqaror o'sishiga zamin yaratmoqda.

Xitoyda soliq reytingi tizimi yakkama-yakka bo'lib qolmay, balki kengroq ijtimoiy kredit modeliga integratsiyalashgani uni boshqaruvning qudratli quroliga aylantirdi. Soliq intizomi haqidagi ma'lumotlar boshqa sohalar bilan bog'lanishi natijasida korxonaning umumiy ishonchlilik profiliga ta'sir ko'rsatmoqda. Bankdan kredit olishda, bo'xsonada yuk rasmiylashtirishda, tenderlarda g'olib bo'lishda soliq reytingi muhim mezon sifatida ko'rilmoqda. Bundan tashqari, soliq reytingi Xitoyda ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining bir qismiga aylangan: yirik kompaniyalar ham jamiyat oldida o'z soliq halolligi bilan baholanmoqda. Shubhasiz, bunday tizim ishonch muhitini yaxshilaydi, korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashni ham kuchaytiradi.

Tizimning samarali ishlashini ta'minlagan omillardan biri bu soliq ma'muriyatining raqamli transformatsiyasi. Xitoy soliq organlari elektron platformalar, real vaqt monitoring va sun'iy intellekt yordamida ulkan ma'lumot oqimini boshqarishga erishdi. Natijada baholash va reyting chiqarish jarayonlari maksimal darajada avtomatlashtirilib, insoniy faktor xatolari minimallashtirildi.

O'zbekiston joriy etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi qisqa davrda soliq intizomining yaxshilanishiga va oshkoralikning oshishiga xizmat qildi. Minglab tadbirkorlar eng yuqori reyting uchun kurashar ekan, soliqlarini vaqtida to'lashga intilmoqda. Hukumat ham bunday halol biznesni nazoratdan ozod qilish va tezkor QQS qaytimi kabi rag'batlar orqali qo'llab-quvvatlamoda. Bu jarayonlar ko'rsatadiki, Xitoy modelini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mahalliy sharoitga mos holda joriy etish ham mumkin va samarali.


Yakun sifatida aytish mumkinki, Xitoyning soliq to'lovchilar reytingi tizimi hozirgi zamon fiskal boshqaruvining innovatsion yo'nalishi bo'lib, u davlatga soliqlarni to'liq yig'ishda, jamiyatga halol va tartibli biznes muhitini yaratishda, tadbirkorlarga esa o'z obro'sini oshirish va qo'shimcha imkoniyatlar olishda yordam beradigan kuchli vositadir. Ushbu tizimning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat



siyosiy irodasi, raqamli infratuzilma, idoralararo integratsiya va tadbirkorlik hamjamiyatining qo'llab-quvvatlashiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xitoy Davlat Soliq Boshqarmasi. (2020). Taxpayer Credit Evaluation Measures (STA Announcement No. 15). Pekin: State Taxation Administration. <https://chinatax.gov.cn>
2. Dezan Shira & Associates. (2021). China's Taxpayer Credit Rating System: An Explainer. China Briefing. <https://www.china-briefing.com>
3. International Monetary Fund (IMF). (2023). Digitalization of Tax Administration: Global Trends and Country Experiences. Washington, D.C.: IMF Working Paper Series.
4. OECD. (2021). Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
5. World Bank Group. (2022). Enhancing Tax Compliance through Digital Tools: Country Case Studies. World Bank Policy Research Report.
6. Liu, Q., & Zhang, Y. (2019). Social Credit System and Tax Governance in China. Journal of Public Administration and Policy Research, 11(3), 45–58.
7. Uzbekistan Chamber of Commerce and Industry. (2024). "Barqarorlik reytingi" axborot platformasi: foydalanish yo'riqnomasi. Toshkent: Savdo-sanoat palatasi matbuot xizmati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2024). Soliq siyosatini raqamlashtirish orqali biznes muhitini yaxshilash strategiyasi. Rasmiy bayonot, yanvar.
9. Asia Development Bank (ADB). (2020). The Digitalization of Tax Systems in Asia: Lessons from China, Korea, and Singapore. Manila: ADB Economics Working Paper Series.
10. Normatov, A., & Raxmatova, N. (2023). Soliq islohotlari va raqamli baholash tizimlari: O'zbekiston amaliyoti. Moliyaviy tahlil jurnali, 5(2), 37–49.
11. Soliq.uz. (2025). Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi: baholash mezonlari va ballar tizimi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti. <https://soliq.uz>
12. UNCTAD. (2023). Digital Economy Report: How Developing Countries Can Harness Tax Technology. BMT Nyu-York.
13. Rahimov, B., & Yo'ldoshev, M. (2024). Raqamli fiskal boshqaruv va barqarorlik reytingi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot va Innovatsiyalar ilmiy jurnali, 9(1), 22–36.
14. IMF. (2022). Revenue Administration: Reforms in the Digital Age. Technical Guidance Note. Washington, D.C.
15. European Commission. (2020). Study on the Use of Taxpayer Ratings in the EU. Brussels: Directorate-General for Taxation and Customs Union.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100